

Globalashuv Jarayonlaridaxxi Asr Axborot Xuruji Va Ma`naviyatga Tahdidlar

Yo`ldoshev Abdumalik¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozir XXI-asrda yuksak taraqqiyot bilan rivojlanib borayotgan dunyoning globalashuv jarayonlari va uning ta`siri, manaviyatga taxdidlar va jamyatga ta`siri va axborot xurujlari va oqibatlari, O'zbekistonda bunga qarshi qilinayotgan amaliy chora tadbirlar haqida fikir yuritiladi.

Kalit so'zlar: dunyo, axborot, globalashuv, manaviyatga taxdid, jamyatga ta`siri, mafkura, mafkuraviy polygon, XXI asr

Kirish

XXI – asr Dunyo hozirda yuksak taraqqiyot yo'li sari bormoqda. Texnologiyalar, sanoat, ham oldingi davrlardagi kabi yuqori natijalar ko'rsatmoqda lekin shular qatorida axborot ham misli ko'rilmagan darajada o'tgan asrlardagidan ko'ra ayniqsa globalashuv davrida juda rivojlanmoqda, inson yashashi uchun mahsulotlarni iste'mol qilgani kabi axborot ham ya'ni axborot is'temoli ham insonyatning ajralmas qismi bo'lmoqda balki ajralmas qismiga ham aylandi deb aytisam mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu takidlab o'tganlarimiz ichida Axborot deb atalmish nomga qisqacha ta'rif berib o'tsak axborot bu - biror voqea haqida batafsil ma'lumot yoki xabar. Hozirgi vaqtda axborot tizimi yuksalmoqda deb takidladim ammo bu, insonyatga jamyatga foyda keltirish bilan birga hozirgi globalashuv davrida zararli tomonlarini ham ko'rsatmoqda deb aytishim mumkin. Sababi insonlar va jamyat kerakli muhim bo'lgan axborotlar bilan birga keraksiz bo'lgan inson ongiga va manaviyatiga hozirda ta'sir qilayotgan axborotlarni iste'mol qilmoqda. Xozirgi XXI - asirga kelib globalashuv va axborot bir biri bilan uyg'unlashib ketmoqda. Globalashuv davrida axborot texnologiyalar rivojlanganligi sababli sonyalar ichida millionlab malumotlar dunyo bo'ylab kezib yuradi bular esa o'z ichiga siyosiy voqelar, turli xil xalqlarga hos ananalar va diniy qarashlar insonlarni o'zaro munosabatlari turli xil voqeliklarni qamrab olgan malumotlardir. Bularning ichida noto'g'ri qarashlarning mavjudligi jamyatdagi insonlarning ma'naviyatiga ongiga qarashlariga ham ta'sir o'tkazmasdan qolmayabdi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida globalashuv haqida shunday deydi; Globalashuv fenomeni haqida gapirganda bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy va hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik muhitini shakillanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jaxon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ta'kidlab o'tadilar. Ushbu takidlab o'tilgan fikriga to'xtaladigan bo'lsak haqiqadan ham bir mintaqada chiqqan muammo yoki muammolar global muammoga aylanib borayotganini hozirgi vaqtda ko'rishimiz mumkin. Bu muammolar esa siyosiy iqtisodiy tarmoqlar bilan birga axborot orqali ham zarar yetkazayotganini anglashimiz mumkin bunga misol tariqasida himoyalangan tarmoqlardan keraksiz axborotlar kirib kelayotgani yana bir bor eslatma qilaman bular esa turli xil noto'g'ri diniy g'oyalari, shavfqatsizlikka targ'ib qiluvchi xaqoratomuz video roliklar yoki o'ziga jalb qiluvchi shartlarga asoslangan o'yinlar va turli xil xaqlarning o'zgarib ketgan madanyati haqida bo'lishi mumkin. Bu esa hozirgi rivojlanib ketgan ijtimoiy tarmoqlarning asosiy foydalanuvchilari yoshlarga sezilarli darajada ta'sir o'tkazmayabdi. Bu aytib o'tganlarimiz bizga yurtimiz yoshlariga ham ta'sir etmasdan qolmaydi, shu o'rinda aytish mumkunki, avj olib borayotgan

¹Andijon davlat Pedagogika institute "Ijtimoiy gumanitar fanlar va sa'nat" fakulteti "Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi



globallashuv jarayoni haqida siyosiy arboblari, faylasuf hamda jamiyatshunos olimlar, jurnalistlar va sharxlovchilar, ziyoli xalq vakillari bu hodisani turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atab kelinmoqda. Avvalo, globallashuv – bu ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayon bo'lib, turli xalqlarning madaniyatiga kuchli ta'sir etuvchi hodisa sifatida dunyoda iqtisodiy integratsiyaning ijobiy omili va milliy iqtisodiyot o'zgarishiga ko'makchi sifatida qabul qilingan. Ammo, dunyoda axborot almashuvining o'sishi bilan u madaniyat, ilm-fan sohasiga ta'sir etuvchi ma'naviy tahdidlar insoniyat oldid²a yangi muammolarni qo'ymoqda. Chetdan kirib kelayotgan, mamlakatimiz fuqarolari, ayniqsa yoshlar ongini individualizm, egosentrizm g'oyalari bilan zaharlovchi ushbu ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi turishimiz zarur. Bebaho boyligimiz milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, ma'naviyat eng avvalo, millatni, milliy qadriyatlarni, milliy turmush tarzini muhofaza qiladi. Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Insonlar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nixoyatda qiyin. "Globallashuv jarayonining o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotgani sog'lom fikrlaydigan har qanday odam albatta kuzatishi muqarrar" axborot sohasidagi globallashuv ta'siri jahonda yetakchilik qilishi uchun kechayotgan shiddatli kurashda namoyon bo'lmoqda. Chunki axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasi davlatning geosiyosiy ta'sirini belgilovchi omillardan biriga aylanmoqda. Shuning uchun axborot texnologiyalari yuksalgan davlatlarda bu sohada ustunlikdan siyosiy, harbiy, iqtisodiy, axborot va madaniy tajovuzlarni amalga oshirish yo'lida foydalanib qolish vasvasasi yo'q, deb aytolmaymiz. Mana shunday kurashlarning oldini olish uchun ham jamiyatimizdagi ma'naviy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish zarur hisoblanadi. Birinchidan mamlakat kelajagi bo'lmish yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish; ikkinchidan, ma'naviy tahdidlarni aynan nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab yetish; uchinchidan, atrofimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmasdan, daxldorlik hissini oshirish zarurdir. Yuqoridagilarni ko'rishimiz mumkinki globallashuv davridagi axborotbarcha jabhada o'z ta'sirini o'tkazishini ko'rishimiz mumkin. Jumladan O'zbekistonda bu masalalarda bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilib borilayotganini aytib o'tish lozim. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 21.11.2018 yildagi PQ-4024-son "Axborot Texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" yoki 03.05.2019 yildagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2021-yil 26 mart kuni prezident Shavkat Mirziyoyev «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlarini ham shular jumlasiga qo'shish mumkin.

Xulosa⁴

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, endilikda quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- globallashuv jarayonida yoshlar ongiga ta'sir etuvchi ijobiy omillarni ilmiy-falsafiy tahlil qilish;⁵
- globallashuv jarayonida milliy axloqiy qadriyatlarning tutgan o'rni va ahamiyatini tadqiq etish;
- chet davlatlardan kirib kelayotgan turli vosita va mafkuraviy omillarning targ'ibot mavzu va g'oyalari haqida hamda usullarini o'rganish va himoyalangan tarmoqqa asos solish;
- yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish va vatanparvarlik ruxini shakllantirish ;
- globallashuv jarayonida O'zbekiston yoshlari ongining musaffoligini ta'minlashga oid taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni takomillashtirish.

² I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari Toshkent 2008

³ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari Toshkent 2008

⁴ <https://lex.uz/docs/-4071401>

⁵ <https://lex.uz/docs/-4320700>



FOYDALANILGAN ADABYOTLAR RO`YXATI:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. 2008.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. 2008.
3. <https://lex.uz/docs/-4071401>
4. <https://lex.uz/docs/-4320700>

